



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-avgust oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi:
(71) 203-88-20(21)*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Toshkent shahrida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-avgust oylarida Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **16 749,8** mln AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **1 777,5** mln AQSH dollariga yoki **11,9** % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-avgust 2024 y., mln AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **16 749,8** +11,9 %

(2023- y.: 14 972,3)



Saldo

2024- y.: **-9 635,0** (2023- y.: -8 491,5)




Eksport

2024- y.: **3 557,4** +9,8 %

(2023- y.: 3 240,4)


TSA dagi ulushi, % da



Import

2024- y.: **13 192,4** +12,4 %

(2023- y.: 11 731,9)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 3 557,4 mln AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 9,8 % ga ko‘paydi) va import hajmi 13 192,4 mln AQSH dollariga (12,4 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida -9 635,0 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-avgust oylari, mln AQSH dollari)

Rossiya TSA – 4 171,0 Eksport: 718,5 Import: 3 452,5  24,9 %	XXR TSA – 3 413,3 Eksport: 509,8 Import: 2 903,5  20,4 %	Qozog‘iston TSA – 1 178,6 Eksport: 262,2 Import: 916,4  7,0 %	Turkiya TSA – 845,8 Eksport: 259,5 Import: 586,3  5,0 %	Turkmaniston TSA – 652,5 Eksport: 25,2 Import: 627,3  3,9 %
AQSH TSA – 387,2 Eksport: 93,6 Import: 293,6  2,3 %	Germaniya TSA – 374,8 Eksport: 24,7 Import: 350,1  2,2 %	BAA TSA – 333,9 Eksport: 100,0 Import: 233,9  2,0 %	Hindiston TSA – 308,1 Eksport: 12,2 Import: 295,9  1,8 %	Afg‘oniston TSA – 293,6 Eksport: 284,6 Import: 9,0  1,8 %

Toshkent shahri jahonning 178 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (24,9 %), XXRda (20,4 %), Qozog‘istonda (7,0 %), Turkiyada (5,0 %) va Turkmanistonda (3,9 %) qayd etilgan.



TOSHKENT SHAHRINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln AQSH dollari)


Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	2 823,2	3 083,8	4 171,0
<i>Eksport</i>	601,0	624,5	718,5
<i>Import</i>	2 222,2	2 459,3	3 452,5
XXR	2 768,4	3 768,8	3 413,3
<i>Eksport</i>	558,6	577,1	509,8
<i>Import</i>	2 209,8	3 191,7	2 903,5
Qozog'iston	1 094,5	1 081,9	1 178,6
<i>Eksport</i>	239,7	276,5	262,2
<i>Import</i>	854,8	805,4	916,4
Turkiya	819,3	944,4	845,8
<i>Eksport</i>	239,3	265,5	259,5
<i>Import</i>	580,0	678,9	586,3
Turkmaniston	390,4	387,8	652,5
<i>Eksport</i>	69,7	77,8	25,2
<i>Import</i>	320,7	310,0	627,3
AQSH	231,9	216,2	387,2
<i>Eksport</i>	31,9	61,5	93,6
<i>Import</i>	200,0	154,7	293,6
Germaniya	486,2	397,6	374,8
<i>Eksport</i>	32,5	22,8	24,7
<i>Import</i>	453,7	374,8	350,1
BAA	241,0	319,8	333,9
<i>Eksport</i>	61,5	123,3	100,0
<i>Import</i>	179,5	196,5	233,9
Hindiston	282,7	253,8	308,1
<i>Eksport</i>	9,3	13,8	12,2
<i>Import</i>	273,4	240,0	295,9
Afg'oniston	228,6	244,2	293,6
<i>Eksport</i>	227,0	241,7	284,6
<i>Import</i>	1,6	2,5	9,0



Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Litva	151,0	281,9	282,3
<i>Eksport</i>	23,4	35,0	115,1
<i>Import</i>	127,6	246,9	167,2
Belarus	191,4	204,3	238,0
<i>Eksport</i>	28,7	27,4	37,9
<i>Import</i>	162,7	176,9	200,1
Koreya Respublikasi	287,3	239,6	229,4
<i>Eksport</i>	12,0	13,4	16,0
<i>Import</i>	275,3	226,2	213,4
Chexiya	65,8	117,1	226,5
<i>Eksport</i>	13,5	24,2	34,3
<i>Import</i>	52,3	92,9	192,2
Fransiya	115,5	287,2	217,7
<i>Eksport</i>	4,8	0,9	7,8
<i>Import</i>	110,7	286,3	209,9
Tojikiston	195,5	195,3	210,9
<i>Eksport</i>	150,0	167,9	157,9
<i>Import</i>	45,4	27,4	53,0
Buyuk Britaniya	103,1	194,6	202,0
<i>Eksport</i>	47,0	79,9	106,6
<i>Import</i>	56,1	114,7	95,4
Qirg'iz Respublikasi	148,3	153,1	176,1
<i>Eksport</i>	125,6	114,4	137,7
<i>Import</i>	22,7	38,7	38,4
Yaponiya	56,5	49,8	169,3
<i>Eksport</i>	8,3	5,1	6,8
<i>Import</i>	48,2	44,7	162,5
Gruziya	80,0	91,8	168,1
<i>Eksport</i>	21,4	24,6	29,0
<i>Import</i>	58,6	67,2	139,1




TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar –avgust mln AQSH doll.)*



Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 16,6 % ulush bilan 2 779,6 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchtepa tumani 2,9 % ulush bilan 480,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

TOSHKENT SHAHRINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 41,0 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,6 % ga ko'paydi.




Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAdi 2024- yilning yanvar-avgust oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,6 % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi 59,0 % ni tashkil etdi.

Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra, 6 870,5 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 1 476,8 mln AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 5 393,7 mln AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




TOSHKENT SHAHRINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)

Rossiya – 24,9		Qozog'iston – 7,0	
Turkmaniston – 3,9		Belarus – 1,4	
Tojikiston – 1,3		Qirg'iz Respublikasi – 1,1	
Ukraina – 0,5		Ozarbajjon – 0,4	
Armaniston – 0,1		Moldova – 0,01	



Toshkent shahrining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (24,9 %), Qozog'iston (7,0 %) hamda Turkmaniston (3,9 %) davlatlari bilan qayd etildi.

TOSHKENT SHAHRINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-avgust, mln AQSH dollari)



Toshkent shahrining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 5 773,4 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 1 163,0 mln AQSH dollari, import hajmi esa 4 610,4 mln AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iz Respublikasi va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-avgust)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, Toshkent shahrining eksportyorlar soni 1 949 taga yetdi va ular tomonidan 3 557,4 mln AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 9,8 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-avgust ulushi % da)



Toshkent shahrida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	3 240,4	3 557,4	109,8	109,8	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	153,2	118,0	138,8	77,0	4,7	3,3
Ichimliklar va tamaki	54,6	61,8	94,2	113,2	1,7	1,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	37,1	34,2	66,2	92,3	1,1	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	107,3	181,8	79,1	169,4	3,3	5,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,5	0,8	23,9	158,8	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	258,5	224,7	90,6	86,9	8,0	6,3
Sanoat tovarlari	573,6	625,1	95,4	109,0	17,7	17,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	331,2	337,4	184,8	101,8	10,2	9,5
Turli xil tayyor buyumlar	148,9	132,3	150,9	88,9	4,6	3,7
Boshqa tovarlar	28,1	29,9	0,0	106,5	0,9	0,8
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Xizmatlar	1 547,4	1 811,4	108,6	117,1	47,8	50,9


Eksport tarkibida tovarlar ulushi 49,1 % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (17,6 %), mashinalar va transport asbob-uskunolari (9,5 %) va kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-avgust oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 % ga kamaygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, mln AQSH
dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-avgust oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Afg'oniston, Qozog'iston, Turkiya, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 65,5 % ni tashkil etdi.

TOSHKENT SHAHRINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, % da)






TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'ri	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	624,5	718,5	103,9	115,1	1	1
XXR	577,1	509,8	103,3	88,3	2	2
Afg'oniston	241,7	284,6	106,5	117,7	5	3
Qozog'iston	276,5	262,2	115,4	94,8	3	4
Turkiya	265,5	259,5	110,9	97,7	4	5
Tojikiston	167,9	157,9	111,9	94,0	6	6
Qirg'iz Respublikasi	114,4	137,7	91,1	120,4	8	7
Litva	35	115,1	149,6	3,3 m.	15	8
Buyuk Britaniya	79,9	106,6	170,0	133,4	10	9
BAA	123,3	100	2,0 m.	81,1	7	10
AQSH	61,5	93,6	192,8	152,2	12	11
Ozarbajjon	34,7	53,4	75,1	153,9	16	12
Kanada	24,8	41,4	160,0	166,9	18	13
Belarus	27,4	37,9	95,1	138,3	17	14
Latviya	41,1	36,3	137,5	88,3	14	15
Chexiya	24,2	34,3	179,3	141,7	20	16
Gruziya	24,6	29	115,0	117,9	19	17
Turkmaniston	77,8	25,2	111,6	32,4	11	18
Syangan (Gonkong)	6,2	24,9	177,1	4,0 m.	35	19
Shveysariya	15	24,9	57,9	166,0	25	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-avgust, mln AQSH doll.)



Toshkent shahar eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 24,2 % bilan 862,2 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bektemir tumani 1,2 % bilan 43,0 mln AQSH dollarini tashkil etdi.




TOSHKENT SHAHRINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-avgust oylarida import hajmi 13 192,4 mln AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 12,4 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (27,8 %), sanoat tovarlari (15,4 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (13,9 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 460,5 mln AQSH dollariga ko'paydi va 13 192,4 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1 070,4 mln AQSH dollariga yetdi.



TOSHKENT SHAHRINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	11 731,9	13 192,4	122,2	112,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 085,3	1 149,7	109,9	105,9	9,3	8,7
Ichimliklar va tamaki	118,9	139,4	144,6	117,2	1,0	1,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	179,0	156,0	93,5	87,1	1,5	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	807,5	1 929,8	147,4	2,4 m.	6,9	14,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	154,2	111,8	145,4	72,5	1,3	0,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 796,3	1 833,1	104,7	102,1	15,3	13,9
Sanoat tovarlari	2 065,3	2 034,2	107,4	98,5	17,6	15,4
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	3 578,5	3 670,6	123,3	102,6	30,5	27,8
Turli xil tayyor buyumlar	577,7	632,4	109,8	109,5	4,9	4,8
Boshqa tovarlar	572,6	465,1	0,0	81,2	4,9	3,5
Xizmatlar	796,8	1 070,4	129,4	134,3	6,8	8,1


Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.



2024- yil yanvar-avgust natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 40,9 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 7,5 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-avgust, mln AQSH dollari, ulushi)


■ MDH davlatlari ■ Boshqa davlatlar



2024- yil yanvar-avgust oylarida Toshkent shahrida 178 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkmaniston, Turkiya, Germaniya va Hindiston) jami importning 69,2 % ni tashkil etdi.



TOSHKENT SHAHAR IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-avgust, % da)






TOSHKENT SHAHRINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust)

Davlatlar	Mln AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
Rossiya	2 459,3	3 452,5	110,7	140,4	2	1
XXR	3 191,7	2 903,5	144,4	91,0	1	2
Qozog'iston	805,4	916,4	94,2	113,8	3	3
Turkmaniston	310,0	627,3	96,7	202,4	6	4
Turkiya	678,9	586,3	117,1	86,4	4	5
Germaniya	374,8	350,1	82,6	93,4	5	6
Hindiston	240,0	295,9	87,8	123,3	9	7
AQSH	154,7	293,6	77,4	189,8	14	8
BAA	196,5	233,9	109,5	119,0	11	9
Koreya Respublikasi	226,2	213,4	82,2	94,3	10	10
Fransiya	286,3	209,9	258,6	73,3	7	11
Belarus	176,9	200,1	108,7	113,1	13	12
Chexiya	92,9	192,2	177,6	206,9	22	13
Litva	246,9	167,2	193,5	67,7	8	14
Yaponiya	44,7	162,5	92,7	363,5	33	15
Italiya	129,8	140,7	116,9	108,4	15	16
Gruziya	67,2	139,1	114,7	207,0	27	17
Irlandiya	75,5	127,5	153,8	168,9	24	18
Avstriya	59,9	124,7	146,5	208,2	28	19
Polsha	118,9	117,2	203,9	98,6	16	20



TOSHKENT SHAHRINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-avgust, mln AQSH doll.)



Toshkent shahrining importi tarkibida eng yuqori ulushni Mirobod tumani 14,5 % bilan 1 917,3 mln AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchtepa tumani 2,9 % bilan 388,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi.